

UDK: 619: 636.2: 591.111: 577.1

BEPUSHT SIGIRLARNING KLINIKASI VA ULARNING MORFOBIOKIMYOVIIY KO'RSATGICHLARI

Alimov B.S. - mustaqil izlanuvchi

Sidiqov B.T. - mustaqil izlanuvchi

ilmiy rahbarlar; **Yunusov X.B.** - b.f.d., professor

Eshburiyev B.M. - v.f.d., professor

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: maqolada xo'jalikdagi tuqqanigan keyin 65-90 kun davomida kuyga kelmagan sigirlar umumiy klinik tekshirishlardan o'tkazilib, ulardan olingan qonining morfobiokimyoviy ko'rsatgichlarining tahlili keltirilgan. Klinik tekshirishlarda sigirlarning semizlik darajasi, nafas soni, yurak urushi soni, tana harorati, katta qorin devorining harakati soni, shilliq pardalar, teri qoplamasining holati va tayanch harakat organlarining holati haqida ma'lumot berilgan

Kalit so'zlar: bepusht, morfologik, biologik, qon, xo'jalik, katta qorin, probirka, aseptik, sigir, kuyga kelish, bo'g'ozlik, klinik, semizlik, nafas, tayanch, shilliq parda, harorat.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida chorva mollari bosh sonini yanada ko'paytirish, ularning mahsuldorlik va zot ko'rsatkichlarini yaxshilash, parrandachilik, yilqichilik, quyonchilik, baliqchilik va asalarichilik tarmoqlarini rivojlantirish kabi dolzarb vazifalar bilan birgalikda veterinariya ilm-fani va amaliyoti mutaxassislari zimmasiga hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashni yanada takomillashtirish, fermer xo'jaliklariga qarashli chorva mollarining mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlarini yaxshilashning samarali va kamchiqim usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali mahsulotlar tannarxini kamaytirishga erishishdek dolzarb vazifalar qo'yilmoqda.

Qoramollar zotini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish muammolarini samarali hal etishga katta to'sqinlik qilayotgan kasalliklar orasida hayvonlar jinsiy a'zolarining kasalliklari, jumladan bepushtliklar asosiy o'rinni egallaydi.

Adabiyot ma'lumotlarida mahsuldor sigirlarining bepushtlining asosiy sababi: matsionning etishmasligi va buning natijasida nerv-muskul tonusining pasayishi, noto'g'ri oziqlantirish, parvarishlash va saqlash qoidalarinig buzilishi, tug'ruq paytida asseptika qoidalariga rioya qilmaslik, tug'ish yo'llarining jaroxat olishi deb takidlangan [1].

Sigirlarning bepushtliklariga sabab bo'ladigan ginekologik kasalliklarning sabablari xilma-xil bo'lib, moddalar almashinuvining buzilishlari, oziqlantirish texnologiyasiga rioya qilinmasligi, bachadon patologiyalarining kuzatilishi, kasalliklar profilaktikasini vaqtida tashkil qilinmasligi va bo'g'oz hayvonlarni o'z

vaqtida sog'indan chiqarmaslik, xo'jalikning biosenozida viruslar, bakteriyalar va patogen zamburug'larining mavjudligi, davolash va profilaktika choralarini yetarli darajada moliyalashtirmaslikgi, veterinar mutaxassislarining, shu jumladan veterinariya ginekologining yetishmasligi hisoblanadi [3].

Hayvonlarni, ayniqsa sut mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarni saqlash va parvarish qilishdagi barcha o'zgartirishlar va xatolar, moddalar almashinuvi buzilishlari, tizim va organlarning gipofunktsiyasi, rezistentlik darajasi va immunitetning pasayishiga, ko'p tomonlama stresslar ta'siri natijada ko'plab kasalliklarga chalinish darajasiga oshishiga olib keladi, jinsiy a'zolar tizimi funktsiyalarini o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini ishdan chiqarishiga olib keladi, buning natijasida bepushtliklar yuzaga keladi (2).

Adabiyot ma'lumotlarining tahlili va shaxsiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklariga chetdan keltirilgan mahsuldor sigirlarda bepushtlikning keng tarqalganligiga qaramasdan, ularning sabablari, rivojlanish xususiyatlari, ertachi aniqlash va oldini olishning samarali usullari to'liq ishlab chiqilmagan.

Ilmiy tadqiqot maqsadi: Ishning maqsadi tuqqaniga 65-90 kun bo'lgan, bepusht sigirlarda kilinik ko'rsatkichlar va ulardan olingan qonning biokimyoviy ko'rsatkichlarini o'rganildi.

Tadqiqotlar o'bektiv va uslubiyatlar: Ilmiy tadqiqot ishlari Samarqand viloyat Tayloq tumani "Siyob Shavkat Orzu" fermer xo'jaligiga qarashli yuqori sut mahsuldorli sog'in sigirlarda o'tkazildi.

Sigirlarda bepushtliklarninng kechish xususiyatlarini, qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida tuqqaniga 65-90 kun bo'lgan, bepushtligi zamonaviy usullar yordamida aniqlangan 10 bosh sut mahsuldorli yuqori sog'in sigirlar umumiy klinik tekshirishlardan o'tkazildi.

Yuqori sut mahsuldorli 10 bosh sigirlarda umimiy klinik tekshirishlar o'tkazilganda quyidagilar aniqlandi:

Tana harorati o'tacha 38,5°C ni; 1 daqiqa davomida yurak urushi son o'rtacha 84,6 marta; Katta qorin devorining 2 daqiqa davomidadi harakati 2,9 marta; Nafas 1 daqiqa davomida sanalganda o'rtacha 35,8 marta; Jinsiy a'zolar shilliq pardalari pushti rangda ekanligi aniqlandi; Barcha sigirlarda teri elastikligi, eri qoplamasi yaltiroqligining pasayganligi aniqlandi.

Sigirlardan qon namunalari aseptika-antiseptika qoidalariga muvofiq bo'yintiriq vena qon tomiridan zararsizlantirilgan maxsus probirkalarga olindi. Bunda probirkalardan biriga geparin bilan ishlov berildi (har 4-5 ml qon uchun 1%-li geparin eritmasidan 0,01 tomchi qo'yilgan) va qon zardobini olish uchun boshqa alohida probirkalarga qon olindi. Qon zardobini tezlikda ajratib olish uchun sentrfugada 1 daq./3000 aylantirish orqali (5 daqiqa davomida) qon zardobi ajratib olindi.

Bepusht sigirlardan olingan qon namunalari "Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti"ning parazitologiya laboratoriyasida "BIOBASE" (Xitoy) avtomatik biokimyoviy analizatori yordamida "Human" firmasi (Germaniya) tomonidan ishlab chiqarilgan reagentlar to'plamidan foydalangan holda tekshirilib qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Klinik ko'rsatkichlar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sigirlardan olingan qonning biokimyoviy ko'satgichlar umumiy oqsil miqorining fiziologik me'yorga nisbatan past chegarada bo'lishi (65,9 g/l; me'yor - 70-92 g/l) qayd etildi. Qondagi gemoglobin miqdorini o'rtacha 82,2 g/l (me'yor - 99-129 g/l) gacha, eritrositlar miqdorini - 5,03 $10^{12}/l$ (5,50-7,50 $10^{12}/l$) gacha, leykositlar miqdorini - 12,99 $10^9/l$ (me'yor 4,50-12,50 $10^9/l$) gacha kamayganligi aniqlandi. Glyukozaning qondagi miqdori 3,15 mmol/l tashkil qildi (me'yorda 2,3-4,1 mmol/l). Sigirlarda gipogemoglobinemiya, gipoproteinemiya, gipoglikemiya, eritrositlar va leykositlar miqdorining kamligini oziqa ratsionlari to'yimligining sigirlar ehtiyojlarini to'liq qondirmasligi bilan izohlash mumkin.

Bitta eritrosit tarkibidagi gemoglobin miqdori fiziologik me'yorga nisbatan past ekanligi aniqlanib, o'rtacha 15,7 p/g (me'yor 17,8-20,8 p/g) tasgkil etdi. Bu ko'rsatkich sigirlarda gipoxrom anemiya kuzatilishidan dalolat beradi. Sigirlar qonidagi xolesterin miqdorining fiziologik me'yorga nisbatan (6,1 mmol/l) ko'payganligi (me'yor 1,6-5,00 mmol/l,) va siydik kislotasi miqdorining 4,2 mmol/l ga tengligi (me'yorda 2,8-8,8 mmol/l) xarakterli bo'ldi (1-jadval).

1-jadval

Bepusht sigirlar qonining morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari

	Sigirlar sirg'a raqami	Umumiy oqsil, g/l	Leykositlar, $10^9/l$	Gemoglobin, g/l	Eritrositlar, $10^{12}/l$	Eritrosit tarkibidagi gemoglobin miqdori, p/g	Xolesterin, mmol/l	Glyukoza, mmol/l	Siydik kislotasi, mmol/l
1	10840	49,0	28,7	88	5,53	15,9	1,7	2,4	2,5
2	25129	60,0	13,0	77	4,68	16,4	9,0	3,9	2,3
3	25869	88,8	8,6	85	5,34	15,9	8,2	3,7	2,3
4	00001081	61,1	15,0	68	4,16	16,3	8,8	3,7	2,3
5	562	62,5	8,2	83	5,53	15,4	5,2	3,0	2,94
6	12011	68,9	14,4	78	4,68	16,6	7,9	2,6	2,2
7	6737	62,7	7,3	78	4,74	16,4	3,7	3,2	2,5
8	07349	75,2	18,4	96	5,6	16,6	3,2	3,0	2,2
9	25758	68,3	5,7	80	5,02	15,9	6,4	2,3	2,3
10	25856	62,4	10,6	88	5,04	17,4	4,0	3,7	2,2
	O'rtacha	65,9	12,99	82,1	5,03	16,3	5,81	3,15	2,4

Xulosa. 1. Bepusht sigirlarda klinik ko'rsatkichlar junlarning yaltiroqligi va teri elastikligining pasayganligi, shilliq pardalarning anemiyasi, shuningdek, ayrim sigirlarda ishtahaning pasayishi, kavsh qaytarishning kamayganligi, katta qorin massasi konsistentsiyasining xamirson bo'lishi, qorin terisining elastik-tarang ekanligi, katta qorinning 2 daqiqadagi qisqarishi o'rtacha 2,9 martani tashkil etib, qisqarishlar tartibsiz ritmda ekanligi bilan xarakterlanadi;

2. Sigirlarda qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari leykosit, gemoglobin, eritrositlar miqdori va eritrosit tarkibidagi gemoglobin miqdorini fiziologik me'yorga

nisbatan past ekanligi, glyukozani ($2,3-4,1 \pm 1,124$ mmol/l) va xolesterin miqdorini ($1,6-5,00 \pm 1,13$ mmol/l) me'yorga nisbatan ko'payishi bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Обмен веществ и его коррекция в воспроизводстве крупного рогатого скота / А.А. Стрекольников, К.В. Племяшов // Современные проблемы ветеринарного обеспечения репродуктивного здоровья животных: Материалы Международной научно–практической конференции, посвященная 100–летию со дня рождения профессора В.А. Акатова. 27–29 мая 2009 года, г. Воронеж. – Воронеж: изд–во «Истоки», 2009. – с. 25.
2. Хамитова, Л.Ф. Проблемы воспроизводства стада/ Л.Ф. Хамитова, Е.А. Мерзлякова, А.А. Метлякова// Ученые записки КГАВМ. – 2015. – Том 222. – с. 234 – 235
3. Эшбуриев, Б. М., Алимов, Б. С., & Эрназаров, Б. (2023). СОҒИН СИГИРЛАР РЕПРОДУКТИВ КЎРСАТКИЧЛАРИГА “MIOSTA Н®” ПРЕПАРАТИНИНГ ТАЪСИРИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 34(3), 142-145.
4. Alimov, B. S., & Xamidov, M. X. (2023). SIGIRLARDA GINEKOLOGIK KASALLIKLARNI DAVOLASHGA YANGICHA YONDOSHISH. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 92-95.
5. Юнусов, Х. Б., Эшбуриев, Б. М., & Алимов, Б. С. (2024). Дисфункция яичников и субинволюция продуктивных коров и бесплодия в последствие их. *Ustozlar uchun*, 1(1), 333-337.
6. Alimov, B., Sidikov, B., Urazov, S., Yunusov, K., & Eshburiyev, B. (2024). Uterine subinvolution, ovarian hypofunction in productive cows and infertility as a result of their. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 118, p. 01016). EDP Sciences.
7. Элмуродов, Б., & Актамов, У. (2022). Биохимические изменения в крови кроликов, больных пастереллезом. *in Library*, 22(4), 115-118.
8. Elmuradov, B. A. (2024). VETERINARIYA ILM-FANINING RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION ISHLANMALARNING O 'RNI. *Ustozlar uchun*, 1(1), 3-6.
9. Рузимуродов, М., & Елмурадов, Б. (2024). Роль инновационных разработок в развитии ветеринарной науки. *in Library*, 2(2), 3-6.
10. Elmurodov, B. A. (1999). Qo 'zilarida pasterellyoz va kolibakterioz aralash holda uchraganda kuzatiladigan klinik-anatomik belgilari. *Проблемы изыскания синтеза и производства препаратов для ветеринарии: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari to 'plami.*–Samarqand: VITI, 219-221.
11. Alimov, B. S., Sidiqov, B. T., & Eshburiyev, B. M. (2024). BEPUSHT SIGIRLARNING KLINIK MORFOBIOKIMYOVIY KO 'RSATGICHLARI. *Yangi O 'zbekiston ustozlari*, 2(29), 13-16.